Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 91
TABIIY FANLAR

FARG'ONA VILOYATI AHOLISINING HUDUDIY TARKIBI VA DEMOGRAFIK RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Jumanazar Zokirjon o'g'li Mirzatillayev[a,*], Xayitboy Abdug'aniyevich Abduvaliyev[b]

[a] *Farg'ona davlat universiteti muataqil izlanuvchisi*
[b] *Farg'ona davlat universiteti geografiya kafedrasi dotsenti.*
✉ mirzatillayev@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Farg'ona viloyati aholisining bugungi demografik tarkibi, hududiy taqsimlanishi hamda mehnat resurslarining shakllanish xususiyatlari tahlil qilingan. Viloyatning respublika demografik salohiyatidagi o'rni, ma'muriy-hududiy birliklar kesimida aholi sonining o'ziga xos jihatlari, qishloq aholi punktlari tizimidagi o'zgarishlar hamda urbanizatsiya jarayonlarining mehnat resurslariga ta'siri statistik ma'lumotlar asosida baholangan. Tadqiqot natijalariga tayangan holda viloyatning demografik rivojlanish tendensiyalari va mehnat resurslaridan samarali foydalanishning ustuvor yo'nalishlari yoritilgan.

Kalit so'zlar

Farg'ona viloyati, aholi, demografik tarkib, mehnat resurslari, aholi soni, hududiy taqsimlanish, qishloq aholi punktlari, urbanizatsiya, demografik salohiyat, aholi zichligi, migratsiya, iqtisodiy geografiya.

DOI: 10.5281/zenodo.21743886

KIRISH

Aholi mamlakatning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy resurslaridan biri bo'lib, hududlarning rivojlanish darajasi, ishlab chiqarish salohiyati hamda mehnat resurslarining shakllanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Aholining hududiy joylashuvi, soni va tarkibini ilmiy tahlil qilish iqtisodiy geografiya va demografiya fanlarining dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Ayniqsa, aholi zich joylashgan hududlarda demografik jarayonlarning xususiyatlarini o'rganish hududlarni kompleks rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Farg'ona viloyati O'zbekiston Respublikasining sharqiy qismida joylashgan bo'lib, mamlakatning iqtisodiy va demografik jihatdan eng rivojlangan hududlaridan biri sanaladi. Viloyat Farg'ona vodiysining markaziy qismida joylashgani, unumdor yer resurslari, qulay tabiiy sharoiti, rivojlangan transport-kommunikatsiya tizimi va tarixan shakllangan aholi manzilgohlari tarmog'i bilan ajralib turadi. Mazkur omillar viloyatda aholi sonining yuqori bo'lishiga va aholi zichligining respublika o'rtacha ko'rsatkichidan ancha yuqori shakllanishiga sabab bo'lgan.

Barchamizga ma'limki, hududlar kesimida aholining joylashuvi notekis taqsimlanmaganligi barchaga ma'lum. Aholining asosiy qismi Samarqand, Farg'ona, Qashqadaryo, Andijon va Namangan viloyatlarida jamlangan bo'lib, mazkur beshta hudud hissasiga respublika aholisining qariyb 50 foizga yaqin aholisi to'g'ri keladi. Bu esa mamlakatning demografik salohiyati asosan tarixan ko'p o'zlashtirilgan va tabiiy o'sish sur'atlari yuqori bo'lgan hududlarda to'planganligini ko'rsatadi [1].

Natija va muhokama. Farg'ona viloyatining aholisi 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 4 223 044 kishiga teng bo'lib, O'zbekiston Respublikasi aholisining 11 foizdan oshiqroq qismini tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkich Farg'ona viloyatini aholi soni bo'yicha respublikada Samarqand viloyatidan keyin 2-o'ringa olib chiqadi. Bugungi kunga kelib, respublika hududlarining demografik salohiyati bo'yicha Farg'ona vodiysining

har ikki viloyatidan ham (Andijon – 3521842 kishi, Namangan – 3190800 kishi), janubiy mintaqaning ikki yirik viloyatidan ham (Qashqadaryo – 3716949 kishi, Surxondaryo – 3010955 kishi) hamda mamlakat poytaxti Toshkent shahridan ham oldinda ekanligi ko‘rinadi (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy hududiy birliklarining aholi soni va ulushi (01.01.2026 holatiga).

O‘rin	**Hudud**	**Aholi soni**	**Ulushi (%)**
1	Samarqand vil.	4 379 791	11,46
2	Farg‘ona vil.	4 223 044	11,04
3	Qashqadaryo vil.	3 716 949	9,72
4	Andijon vil.	3 521 842	9,21
5	Namangan vil.	3 190 800	8,35
6	Toshkent sh.	3 178 144	8,31
7	Toshkent vil.	3 160 671	8,27
8	Surxondaryo vil.	3 010 955	7,88
9	Buxoro vil.	2 107 035	5,51
10	Xorazm vil.	2 069 220	5,41
11	Qoraqalpog‘iston R.	2 053 173	5,37
12	Jizzax vil.	1 566 885	4,10
13	Navoiy vil.	1 111 898	2,91
14	Sirdaryo vil.	946 297	2,47
	Jami	**38236704**	**100 %**

Jadval O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistikasi qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlandi [6].

1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, Samarqand viloyati jami aholining 11,46 foizini o‘zida jamlab, yetakchilik qiladi. Ammo, uning maydoni Farg‘ona viloyati maydonidan 2,5 barobarga yoki 10,1 ming km kv ga katta. Bu holat esa Farg‘ona viloyatida aholi soni Samarqand viloyatidan kam bo‘lgani holda, aholi punktlari zichligi, aholining zichligi, demografik jipslik yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Farg‘ona viloyatidan keyingi o‘rinlardagi Qashqadaryo (9,72%), Andijon (9,21%) hamda Namangan (8,35%) viloyatlarida ham tabiiy ko‘payish darajasi yuqori, mehnat resurslari salmog‘i katta hududlar hisoblanadi. Ayniqsa, Andijon va Namangan viloyatlari Farg‘ona vodiysining tarkibiy qismi sifatida aholi zichligi va urbanizatsiya ko‘rsatkichlari bo‘yicha respublikaning yetakchi hududlari sirasiga kiradi.

Solishtirma tahlil shuni ko‘rsatadiki, Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlari birgalikda respublika aholisining 28,6 foizini tashkil etadi. Bu esa mamlakatdagi har to‘rt nafar aholining bittadan ko‘prog‘i aynan Farg‘ona vodiysi hududlarida istiqomat qilishini anglatadi. Mazkur ko‘rsatkich vodiyning O‘zbekistonning asosiy demografik va mehnat resurslari hududi ekanligini tasdiqlaydi [2].

Farg‘ona viloyatining aholi soni va respublika aholisidagi ulushining yuqoriligi, viloyatning iqtisodiy rivojlanishi, mehnat bozori, urbanizatsiya jarayonlari va ijtimoiy infratuzilmani rejalashtirishda alohida e’tibor talab qiladigan hudud ekanligini anglatadi. Shu bois, kelgusida Farg‘ona viloyatida yangi ish o‘rinlarini yaratish, transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, zamonaviy uy-joylar qurilishi hamda ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish demografik bosimni kamaytirishning muhim yo‘nalishlari hisoblanadi. Mazkur omillar viloyatning nafaqat demografik, balki iqtisodiy rivojlanishida ham muhim strategik ustunlikni shakllantiradi.

O‘zbekiston Respublikasida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida aholi soni muhim omillardan biri hisoblanadi. Hududda istiqomat qilayotgan aholi soni mehnat resurslari shakllanishi, iste’mol bozori kengligi, iqtisodiy faollik darajasi hamda infratuzilma rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli mamlakat tumanlari aholi sonini hududlar kesimida tahlil qilish nafaqat demografik, balki iqtisodiy-geografik nuqtai nazardan ham katta ilmiy ahamiyatga ega.

Farg‘ona viloyati 1938 yil 15-yanvarda tashkil etilgan bo‘lib, bugungi kunda uning maydoni 6,76 ming km kv ni tashkil etadi. Viloyatda 9 ta shahar (4 tasi bevosita respublikaga bo‘ysunuvchi shaharlar), 15 ta qishloq ma’muriy tumanlari, 1000 ta qishloq aholi punktlari (QAP), 194 ta shaharchalar mavjud (2-jadval).

2-jadval

Farg‘ona viloyati ma’muriy-hududiy tuzilishi va aholising ayrim ko‘rsatkichlari.

№	Hudud	Hududi (ming km²)	Aholi soni (respublikadagi o‘rni)	Viloyat aholisidagi ulushi (%)	Jami shahar-lar	Shahar-chalar	QAP soni
1	Farg‘ona sh.	0,11	335 087 (6)	7,94	1	–	–
2	Qo‘qon sh.	0,06	319 611 (7)	7,57	1	1	–
3	Marg‘ilon sh.	0,05	261 948 (10)	6,20	1	1	
4	Quvasoy sh.	0,26	104 832 (20)	2,48	1	1	30
1	Oltiariq	0,63	237 263 (46)	5,62	1	14	18
2	Qo‘shtepa	0,37	217 765 (61)	5,16	–	14	62
3	Bag‘dod	0,34	243 006 (39)	5,75	–	21	59
4	Buvayda	0,28	258 244 (30)	6,12	–	10	88
5	Beshariq	0,77	251 311 (34)	5,95	1	10	96
6	Quva	0,44	285 386 (23)	6,76	1	15	76
7	Uchko‘prik	0,27	252 138 (33)	5,97	–	11	114
8	Rishton	0,31	225 158 (53)	5,33	1	13	41
9	So‘x	0,22	88 652 (178)	2,10	–	7	12
10	Toshloq	0,24	226 175 (52)	5,36	–	10	88
11	O‘zbekiston	0,67	244 968 (37)	5,80	1	21	87
12	Farg‘ona	0,59	230 196 (51)	5,45	–	20	27
13	Dang‘ara	0,43	184 682 (93)	4,37	–	8	116
14	Furqat	0,31	132 231 (127)	3,13	–	8	58
15	Yozyovon	0,41	124 391 (136)	2,95	–	9	28
	Jami	**6,76**	**4 223 044**	**100,0**	**9**	**194**	**1000**

Jadval O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistikasi qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlandi [6].

Farg‘ona viloyati tumanlari aholi soni jihatidan respublikada yuqori salohiyatga ega hududlardan hisoblanadi. Viloyatning Quva tumanida 2026-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 285,4 ming aholi bilan respublika tumanlari orasida 23-o‘rinni egallaydi va viloyatning aholi soni bo‘yicha eng yirik tumani hisoblanadi. Shuningdek, Buvayda tumani 258,2 ming kishi (30-o‘rin), Uchko‘prik tumani 252,1 ming kishi (33-o‘rin) va Beshariq tumani 251,3 ming kishi (34-o‘rin) bilan respublikaning eng yirik 35 ta tumani qatoriga kiritiladi. Farg‘ona viloyatining 11 ta tumani aholi soni 100 ming kishidan ortiq bo‘lgan respublikaning jami 61 ta ma’muriy tumanlari qatoriga kiradi. Bu esa viloyatning demografik va ma’muriy demografik salohiyati katta ekanligining dalili sifatida asoslanadi [3, 4].

Farg‘ona viloyatida qishloq aholi punktlari hududlar kesimida notekis taqsimlangan. Viloyatdagi eng yuqori ko‘rsatkich Dang‘ara tumanida kuzatilib, unda 116 ta QAP mavjud. Mazkur ko‘rsatkich bilan tuman respublika miqyosida 23-o‘rinni egallaydi. Dang‘ara tumanining yuqori ko‘rsatkichi aholi joylashuvining tarqoqligi, sug‘orma dehqonchilikning rivojlanganligi va tarixiy shakllangan qishloq manzilgohlari tizimi bilan izohlanadi. Uchko‘prik tumani 114 ta qishloq aholi punktiga ega bo‘lib, respublika reytingida 29-o‘rinni egallaydi. Ushbu holat tumanning yuqori demografik salohiyati hamda aholi punktlarining nisbatan mayda va zich joylashganligini ko‘rsatadi. Beshariq tumanida 96 ta QAP mavjud bo‘lib, u respublikada 40-o‘rinni egallaydi. Tumandagi qishloq aholi punktlarining ko‘pligi hududning agrar ixtisoslashuvi hamda sug‘orma dehqonchilikning ustunligi bilan bog‘liqdir. Buvayda, Toshloq va O‘zbekiston tumanlari mos ravishda 88, 88 va 87 ta qishloq aholi punktlariga ega bo‘lib, respublika reytingida 48-51-o‘rinlarni egallaydi. Farg‘ona viloyatining 7 ta tumani respublikaning eng yuqori natijaga ega bo‘lgan 60 ta tumani tarkibiga kiradi. Mazkur natijalar ushbu tumanlarning ham mamlakatdagi rivojlangan qishloq manzilgohlari tizimiga ega hududlar qatoridan o‘rin olishini ko‘rsatadi.

Viloyat respublikaga bo‘ysinuvchi Farg‘ona, Qo‘qon, Marg‘ilon va Quvasoy shaharlari egalik qiladi. Jami 1021478 kishi yoki viloyat jami aholisining 24,2 foiziga egalik qilmoqda. Mavkuz shaharlar o‘ziga xos demografik yadrolarni hosil qilgan bo‘lib, viloyatning g‘arbiy hududi shahar yadrosini yagona Qo‘qon shahri hosil qilsa, viloyatning sharqiy hududida yangi shakllanib borayotgan Farg‘ona-Marg‘ilon aglomeratsiyasi hamda sanoat, qazib olish ixtisoslashuviga ega Quvasoy shahri misolida namoyon bo‘ladi. Qo‘qon shahri qadimdan va hozirgi kunda ham o‘ziga transport logistika hududida joylashganligi sababli hamda shahar atrofi ma’muriy tumanlarining ijtimoiy-madaniy hayotida o‘ziga o‘rin egallaydi. G‘arbiy mintaqaning Beshariq, Furqat, O‘zbekiston, Uchko‘prik, Buvayda, Dang‘ara va Bog‘dod tumanlari aholisi ijtimoiy-xo‘jalik ishlarida bevosita Qo‘qon shahrining o‘rni beqiyosdir.

Tadqiqotchilar, ilmiy hamjamiyat va shaharshunos olimlar tomonidan Toshkent aglomeratsiyasidan keyin, respublikada muhim aglomeratsiya hosil qilib borayotgan Farg‘ona va Marg‘ilon shaharlari o‘ziga xos xususiyatga ega. Farg‘ona viloyatining Marg‘ilon shahar hududi 734 gektarga kengaytirildi. Bu O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavakat

Mirziyoyev shu yilning 5-6 iyun kunlari Farg‘ona viloyatiga tashrifi davomida Farg‘ona va Marg‘ilon shaharlari hududini kengaytirish bo‘yicha bergan ko‘rsatmalariga muvofiq amalga oshirildi [7].

Ma’lum bo‘lishicha, viloyat qurilish boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan bosh rejaga asosan Marg‘ilon shahrini kengaytirish maqsadida Farg‘ona tumani Cheksho‘ra Mashrab Bobur massivi hududidan bir qismi hamda Marg‘ilon yo‘ldosh shaharchasi maydonlarini biriktirish munosabati bilan Marg‘ilon shahar ma’muriy hududiy chegara chizig‘iga o‘zgartirish kiritish belgilandi. Ishchi guruh tomonidan bu bo‘yicha taklif tayyorlandi.

Yangi taklifga ko‘ra, Farg‘ona tumani Cheksho‘ra Mashrab Bobur massividan 10 ta qishloq xo‘jalik korxonalari, 8 ta begona yerdan foydalanuvchilar, Marg‘ilon yo‘ldosh shaharchasidan 12 ta begona yerdan foydalanuvchilar jami 734,91 gektar, shundan ekin yer maydoni 151,82 gektar, ko‘p yillik daraxtlar 118,07 gektar va 465,02 gektar boshqa yer maydonlarini Marg‘ilon shahriga ajratish uchun loyiha ishlari amalga oshirildi.

Farg‘ona tumanidan 734,91 gektar yer maydoni shaharga qo‘shilgandan keyin Marg‘ilon shahrining umumiy maydoni 4 817,91 gektarni tashkil qiladi. Hozirda bu borada tegishli meyoriy-huquqiy hujjatlar loyihalari tayyorlanib, mahalliy kengashlar va Oliy Majlisda ko‘rib chiqish uchun kiritishishlari olib borilmoqda, deyiladi xabarda [5].

Farg‘ona viloyatida 2010-2025-yillarda QAPlar soni 1021 tadan 1000 ga o‘zgardi. 2017–2022 yillarda Farg‘ona viloyatida qishloq aholi punktlari soni 1021 ta bo‘lib, hududlar kesimida deyarli o‘zgarmagan. Bu davrda viloyatning aholi manzilgohlari tizimi nisbatan barqaror rivojlangan. Biroq 2023–2025 yillarda ayrim tumanlarda ma'muriy-hududiy o‘zgarishlar natijasida QAPlar soni kamaygan.

3-jadval

Farg‘ona viloyati qishloq aholi punktlarini 2017-2025 yillar davomida o‘zgarib borishi

Hudud	**2017**	**2018**	**2019**	**2020**	**2021**	**2022**	**2023**	**2024**	**2025**
Farg‘ona sh.	–	–	–	–	–	–	–	–	–
Qo‘qon sh.	–	–	–	–	–	–	–	–	–
Marg‘ilon sh.	–	–	–	–	–	–	–	–	–
Quvasoy sh.	30	30	30	30	30	30	30	30	30
Oltiariq t.	18	18	18	18	18	18	18	18	18
Qo‘shtepa t.	62	62	62	62	62	62	62	62	62
Bag‘dod t.	59	59	59	59	59	59	59	59	59
Buvayda t.	88	88	88	88	88	88	88	88	88
Beshariq t.	96	96	96	96	96	96	96	96	96
Quva t.	76	76	76	76	76	76	76	76	76
Uchko‘prik t.	120	120	120	120	120	120	115	114	114
Rishton t.	41	41	41	41	41	41	41	41	41
So‘x t.	12	12	12	12	12	12	12	12	12
Toshloq t.	88	88	88	88	88	88	88	88	88
O‘zbekiston	97	97	97	97	97	97	84	86	87
Farg‘ona t.	28	28	28	28	28	28	27	27	27
Dang‘ara t.	120	120	120	120	120	120	116	116	116
Furqat t.	58	58	58	58	58	58	58	58	58
Yozyovon t.	28	28	28	28	28	28	28	28	28
Jami	**1021**	**1021**	**1021**	**1021**	**1021**	**1021**	**998**	**999**	**1000**

Jadval O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistikasi qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlandi [6].

Viloyatdagi umumiy QAP soni 1021 tadan 1000 taga kamayib, 21 ta aholi punktiga qisqargan. Ushbu o‘zgarishlar barcha tumanlarda emas, balki ayrim hududlarda kuzatilgan. Qisqarish O‘zbekiston, Uchko‘prik, Dang‘ara, Farg‘ona tumanlarida kuzatilgan.

Eng katta qisqarish O‘zbekiston tumanida qayd etilib, bu yerda qishloq aholi punktlari soni 97 tadan 87 taga kamaygan, ya'ni 10 ta QAP qisqargan. Mazkur holat viloyat bo‘yicha kuzatilgan umumiy kamayishning deyarli yarmini tashkil etadi. Bu esa tumanda aholi punktlarini optimallashtirish va yiriklashtirish jarayonlari nisbatan faol kechganligini ko‘rsatadi.

Uchko‘prik tumanida QAP soni 120 tadan 114 taga kamayib, 6 ta aholi punkti qisqargan. Viloyatdagi eng ko‘p qishloq aholi punktlariga ega hududlardan biri bo‘lgan Uchko‘prikda bu jarayon aholi manzilgohlarining o‘zaro yaqin joylashuvi va infratuzilmaviy integratsiyaning kuchayishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Dang‘ara tumanida esa QAP soni 120 tadan 116 taga tushib, 4 ta aholi punkti qisqargan. Bu tuman Markaziy Farg‘onaning intensiv o‘zlashtirilgan hududlaridan biri bo‘lib, aholi punktlari tizimining qayta tashkil etilishi natijasida ayrim mayda qishloqlarning yirik manzilgohlar tarkibiga qo‘shilishi kuzatilgan.

Eng kam o‘zgarish Farg‘ona tumanida qayd etilgan bo‘lib, bu yerda qishloq aholi punktlari soni 28 tadan 27 taga kamaygan. Tuman viloyat markazi ta’sir zonasida joylashgani sababli urbanizatsiya va suburbanizatsiya jarayonlari qishloq manzilgohlari tizimiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatgan.

2017–2025 yillar davomida viloyatda kuzatilgan 21 ta QAPning qisqarishi asosan O‘zbekiston, Uchko‘prik, Dang‘ara va Farg‘ona tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Qolgan tumanlarda esa qishloq aholi punktlari soni o‘zgarmagan bo‘lib, bu ularning aholi joylashuvi tizimi nisbatan barqaror rivojlanganligini ko‘rsatadi. Mazkur o‘zgarishlar Farg‘ona viloyatida urbanizatsiya jarayonlarining chuqurlashuvi, qishloq manzilgohlarining yiriklashuvi va ma’muriy-hududiy optimallashtirish siyosatining natijasi sifatida baholanishi mumkin.

XULOSA

Tadqiqot natijalari Farg‘ona viloyati O‘zbekistonning eng yirik demografik va mehnat resurslari salohiyatiga ega hududlaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Viloyatda aholi sonining yuqoriligi, aholi zichligi va mehnatga layoqatli aholining salmoqli ulushi iqtisodiy rivojlanish uchun muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, demografik bosimning ortib borishi yangi ish o‘rinlarini yaratish, urbanizatsiya jarayonlarini oqilona boshqarish, transport va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanishni taqozo etadi. Qishloq aholi punktlari tizimidagi ma'muriy-hududiy o‘zgarishlar hududlarni optimallashtirish va aholi joylashuvining zamonaviy tendensiyalarini aks ettiradi. Kelgusida viloyatning demografik rivojlanishini mehnat bozori ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirish, hududiy rejalashtirishni takomillashtirish va aholi bandligini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аҳмадалиев Ю., Абдувалиев Ҳ. Фарғона водийсида аҳоли жойлашувини ландшафт омили асосида такомиллаштириш. Монография. “Classic” нашриёти, Фарғона, 2021. 140 б.
2. Tojiyeva Z.N. O‘zbekiston Respublikasida demografik jarayonlar va ularning hududiy xususiyatlari: geografiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2017.
3. Friedman, M. The role of monetary policy / M. Friedman // American Economic Review. – 1968. – Vol. 58, № 1. – P. 1–17.
4. Soliyev, A. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya : darslik / A. Soliyev, N. Komilova, S. Yanchuk, Sh. Jumaxanov, F. Rajabov. – Toshkent : Universitet, 2019. – 360 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 13-sentabrdagi SQ-624-IV-sonli “Farg‘ona viloyatining Uchko‘prik, O‘zbekiston, Dang‘ara, Qo‘shtepa, Toshloq, Farg‘ona tumanlari va Qo‘qon, Marg‘ilon, Farg‘ona shaharlari chegaralarini o‘zgartirish to‘g‘risida”gi qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari, 2024 [Elektron resurs]. – URL: https://www.stat.uz
7. https://daryo.uz/uz/2020/08/21/margilon-shahri-hududi-734-gektardan-ortiq-maydonga-kengayadi/